

ZANGIOTA TUMANIDA AHOLIGA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Egamberdieva Matluba Mamanazarovna
ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0001-3386-0854>
Nurmatova Muhabbat Yoqubjon qizi
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Annotatsiya: Maqolada Zangiota tumanida aholiga xizmat ko'rsatish sohalarining rivojlanish xususiyatlari va hududiy tashkil etilishi iqtisodiy-geografik nuqtayi nazardan tadqiq etilgan. GIS texnologiyalari, kartografik, qiyosiy va tizimli tahlil usullari asosida xizmat ko'rsatish obyektlarining hududiy joylashuv qonuniyatlari baholangan. Tadqiqot natijasida Zangiota tumani MFYlarining funksional tipologiyasi ishlab chiqilib, xizmat ko'rsatish obyektlarining magistral transport yo'llariga bog'liqlik koeffitsiyenti aniqlangan. Tahlillar xizmatlar infratuzilmasining hududiy differensiallashuvi va magistral yo'llar ta'sirida shakllangan rivojlanish xususiyatlarini ochib beradi.

Kalit so'zlar: xizmat ko'rsatish sohasi, Zangiota tumani, funksional tipologiya, magistral yo'llarga bog'liqlik koeffitsiyenti, xizmat ko'rsatish infratuzilmasi, iqtisodiy geografiya, GIS texnologiyalari.

ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ ОБСЛУЖИВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ В ЗАНГИАТИНСКОМ РАЙОНЕ

Аннотация. В статье исследованы особенности развития и территориальной организации сферы услуг в Зангиатинском районе на основе экономико-географического подхода. С использованием GIS-технологий, картографического, сравнительного и системного методов анализа выявлены закономерности пространственного размещения объектов сферы услуг и оценена степень их территориальной концентрации. В ходе исследования разработана функциональная типология махаллинских сходов граждан Зангиатинского района и рассчитан коэффициент зависимости объектов сферы услуг от магистральных транспортных путей. Установлено, что развитие сферы услуг характеризуется выраженной территориальной дифференциацией и высокой концентрацией вдоль основных транспортных коридоров.

Ключевые слова: сфера услуг, Зангиатинский район, территориальная организация, функциональная типология, коэффициент зависимости от магистральных дорог, сервисная инфраструктура, экономическая география, GIS-технологии.

ECONOMIC-GEOGRAPHICAL FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF THE SERVICE SECTOR IN ZANGIOTA DISTRICT

Abstract. This study examines the development patterns and territorial organization of the service sector in Zangiota District from an economic-geographical perspective. Using GIS technologies together with cartographic, comparative, and systems analysis methods, the spatial distribution patterns of service facilities and their degree of territorial concentration were assessed. The research developed a functional typology of mahalla citizens' assemblies (MCAs)

and calculated a coefficient measuring the dependence of service facilities on major transportation corridors. The findings reveal a pronounced territorial differentiation of service infrastructure and a high concentration of services along key transport routes.

Keywords: service sector, Zangiota District, territorial organization, functional typology, dependence coefficient on major transport routes, service infrastructure, economic geography, GIS technologies.


XXI asr jahon iqtisodiyoti tub o'zgarishlar davriga kirib borayotgan bir paytda xizmatlar sohasining o'rni tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda iqtisodiy taraqqiyot ko'p jihatdan aynan xizmatlar sektorining rivojlanish darajasi bilan belgilanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, kichik hududlar kesimida xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish omillarini aniqlash, ularni sifat va miqdor jihatdan baholash hamda iqtisodiy o'sishga qo'shayotgan hissasini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, demografik salohiyati yuqori va aholi zich shahar atrofi hududida joylashgan Toshkent viloyatining Zangiota tumani misolida ushbu masalani kompleks o'rganish dolzarblik kasb etadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasi zamonaviy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi sifatida iqtisodiy o'sish va barqaror rivojlanishda yetakchi o'rinni egallab kelmoqda. Ayniqsa rivojlangan davlatlarda yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibida xizmatlar ulushining yuqoriligi bu sohaning strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Masalan, Lyuksemburg, AQSh, Belgiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Singapur va Gongkong kabi mamlakatlarda xizmat sektori yalpi mahsulotning 80-90 % dan ortig'ini tashkil etadi. Bu esa ularning iqtisodiy salohiyati, innovatsion texnologiyalarni joriy qilish darajasi hamda global bozordagi raqobatdoshligini belgilab beradi.

Zangiota tumani Toshkent viloyatining shahar atrofi hududlaridan biri bo'lib, poytaxtga yaqinligi, ya'ni iqtisodiy geografik o'rning qulayligi, rivojlangan transport tizimi hamda infratuzilmasi uning iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda. 2026- yilning 1- yanvar holatiga Zangiota tumanida doimiy aholi soni 180,5 ming kishini tashkil qildi.

Zangiota tumani xizmat ko'rsatish sohalari xaritasi xizmat
infratuzilmasining

ZANGIOTA TUMANINING XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI XARITASI



hududiy tashkil etilishi va rivojlanish darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligini ko'rsatadi. Ma'lumotlariga ko'ra, xizmat ko'rsatish obyektlarining eng yuqori konsentratsiyasi Toshkent shahri bilan bevosita tutashgan sharqiy va shimoli-sharqiy hududlarda shakllangan bo'lib, bu yerda savdo, moliyaviy, transport, ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlari nisbatan rivojlangan.

Aytish joizki, xizmat ko'rsatish tizimlarining hududiy tashkil etilishi, bu avvalo ularning markazlarini xizmat ko'rsatish darajalari va toifasiga, aholi manzilgohlarining katta-kichikligi va zichligiga, xizmat ko'rsatish zonasining demografik salohiyatiga, aholi joylashuvi tizimining rivojlanganlik darajasiga bog'liq.

Shu bilan birga, tumanning g'arbiy, janubi-g'arbiy va ayrim markazdan uzoq hududlarida xizmat ko'rsatish obyektlari soni va turlari nisbatan kam bo'lib, servis infratuzilmasining rivojlanish darajasi pastligi bilan tavsiflanadi. Bu hududlarda qishloq xo'jaligi faoliyatining ustunligi hamda aholi punktlarining tarqoq joylashuvi xizmatlar tarmog'ining sust shakllanishiga sabab bo'lgan. Natijada tuman hududida markaz-periferiya xususiyatiga ega bo'lgan hududiy tafovutlar vujudga kelgan. Biroq, tahlillar xizmatlarning faqat magistral yo'llar bo'ylab rivojlanayotganligini emas, balki ayrim MFYlarda mahalliy servis markazlari shakllanayotganligini ham ko'rsatadi. Shu jihatdan Zangiota tumani xizmat ko'rsatish tizimini "magistral yo'nalishlar ta'sirida rivojlanayotgan politsentrik servis modeli" sifatida baholash mumkin.

Zangiota tumanida xizmatlar sohasi tarkibida ayrim xizmat turlarining ustunligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Xususan, savdo xizmatlari umumiy xizmatlar hajmining 29,8 foizini tashkil etib, eng yuqori ulushga ega tarmoq sifatida qayd etildi. Savdo xizmatlarining bunday yuqori ulushi, avvalo, tumanda aholi zich joylashgan massivlarda zamonaviy savdo majmualari va chakana savdo obyektlarining faoliyat yuritayotgani bilan izohlanadi. Shuningdek, poytaxtga yaqin geografik joylashuv va iste'mol bozorining kengligi savdo xizmatlariga bo'lgan talabni yanada oshirmoqda.

Xizmatlar tarkibida moliyaviy xizmatlar 14,7 foiz, transport xizmatlari esa 10,3 foiz ulushni tashkil etib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Moliyaviy xizmatlar ulushining sezilarli bo'lishi bank-moliya infratuzilmasining rivojlanib borayotganidan hamda aholining moliyaviy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojining ortib borayotganidan dalolat beradi. Transport xizmatlarining yuqori ulushi esa tumanning logistika imkoniyatlari, ishlab chiqarish va savdo jarayonlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

-jadval

Zangiota tumanida MFY lari ixtisoslashuvi

T/r	Tipologiya nomi	MFYlar	Geografik va funksional xususiyati
1	Logistik-savdo tugunlari	Navqiron, Erkin, O'rtovul, Nurafshon, Tarnov, Katta chinor, O'rta, Sortepa, Quyoshli, Istiqlol	Magistral yo'llarga yaqin, savdo va logistika oqimlari yuqori, xizmat ko'rsatish zichligi katta
2	Sanoat-servis zonalari	Turkiston, To'qimachi, Bo'ston, Obod to'qimachi, Alimbuva, Zarafshon, Qurilish, Nurobod, O'rikzor, Qaxramon, Dehqonobod, Madaniyat	Ishlab chiqarish, omborxonalar va servis infratuzilmasi integratsiyalashgan
3	Shahar atrofi servisi	Nazarbek, Eshonguzar, Amir Temur, Ahmad Yassaviy, Obod turmush, Bog'zor, Fayz, Gulbog', Asil, Namuna, M.M. Xorazmiy, Farobiy, Obod, Tokzor, Dalaguzar, O'ratepa, Nayman, Axilobod, Ilg'or, Saxovat, Mevazor, Navbahor, Xarakat, Chinor	Toshkent shahriga tutash, aholiga xizmat ko'rsatish (ta'lim, savdo, maishiy xizmat) ustun
4	Rekreatsioon-ziyosat hududlari	Abdualilbob, Eski qal'a, Nazarbek, Bog'ishamol, Achchisoy	Tarixiy, madaniy va tabiiy resurslar asosida turizm va dam olish xizmatlari rivojlangan
5	Agro-sanoat periferiyasi	Baliqchi, Bodomzor, Ramadon, Shodlik, Turapobod, Tariq-teshar, Keng kichik, Olmazor, Xo'jamozor	Qishloq xo'jaligi ustun, xizmatlar tarqoq, agrotexnika yo'nalishi kuchli

Zangiota tumanida xizmat ko'rsatish obyektlarining hududiy joylashuvi tahlili natijasida ularning magistral transport kommunikatsiyalariga yuqori darajada bog'liqligi aniqlandi. Hisoblangan "magistral yo'lga bog'liqlik koeffitsiyenti"ga ko'ra, xizmat ko'rsatish obyektlarining 70 foizdan ortig'i Toshkent xalqaro avtomobil yo'li (TXAY) va M-39 magistrali ta'sir zonasida joylashgan MFYlarda

to'plangan. Ayniqsa, yuqorida keltirilgan jadvalda logistika-savdo tugunlari (Navqiron, Erkin, O'rtovul, Quyoshli va boshqalar) hamda sanoat-servis zonalari (Turkiston, To'qimachi, Bo'ston va boshqalar) xizmatlar konsentratsiyasining asosiy markazlari sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur holat tumanda xizmat ko'rsatish tizimining transport-geografik omillar ta'sirida shakllanganligini va xizmatlarning hududiy tashkil etilishida magistral yo'llarning hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganligini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, tumanda xizmat ko'rsatish obyektlari faqat aholi zichligi bilan emas, balki tranzit transport oqimlari bilan ham chambarchas bog'langan. Natijada xizmatlarning hududiy joylashuvida "magistral-chiziqli" rivojlanish modeli shakllangan. Biroq yuqorida keltirilgan jadvalda ajratilgan funksional tipologiya ushbu modelning barcha hududlarda bir xil namoyon bo'lmasligini ko'rsatadi. Jumladan, logistika-savdo tugunlari va sanoat-servis zonalari transport yo'llariga bevosita bog'langan bo'lsa, shaharatrofi servisi, rekreatsion-ziyosat hududlari hamda agro-sanoat periferiyasida xizmatlar ko'proq mahalliy ehtiyojlar va hududning ixtisoslashuv xususiyatlari asosida shakllangan. Shu sababli tumanda sof chiziqli model emas, balki magistral yo'nalishlar ta'sirida rivojlangan politsentrik xizmat ko'rsatish tizimi vujudga kelayotganligini ta'kidlash mumkin.

Shu munosabat bilan Zangiota tumanida xizmat ko'rsatish obyektlarining mavjud "magistral-chiziqli" joylashuv qonuniyatini takomillashtirish hamda uni mahallalararo integratsiyalashgan politsentrik xizmat ko'rsatish modeli asosida rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Bunda chekka MFYlarda tayanch servis markazlarini shakllantirish, rekreatsion va agro-sanoat hududlarida ixtisoslashgan xizmat turlarini kengaytirish, shuningdek, yuqori texnologik va muhandislik xizmatlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralishi lozim. Mazkur yondashuv xizmatlardan foydalanish imkoniyatlaridagi hududiy tafovutlarni kamaytirish, servis tanqisligini bartaraf etish hamda tuman xizmat ko'rsatish tizimining barqaror va muvozanatli rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Aliyeva M.T. Turistik mamlakatlar iqtisodiyoti. O‘quv qo‘llanma. T.: TDIU, 2007.
2. Abdukarimov A.A. Xizmat ko‘rsatish sohalarining iqtisodiyotdagi o‘rni va rivojlanish istiqbollari.– Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
3. Jo‘rayev M.M. Hududiy iqtisodiyotda xizmat ko‘rsatish infratuzilmasining modernizatsiyasi.– Toshkent: Fan va texnologiya, 2020
4. Muhiddinov F., Xotamov A., Abdullayev U. *Zangiota tumani mustaqillik yillarida.* – Toshkent: O‘zbekiston, 2000.
5. Nazarov M.I., Egamberdieva M.M. Xizmat ko‘rsatish sohalari geografiyasida ayrim termin va tushunchalardan foydalanishga bo‘lgan yondashuvlar // *Ekonomika i sotsium.* – 2024. – №5(120).
6. Saidov.A.X.Hazrat Zangiota .-Toshkent:”Zamon-Press-Info” nashriyot uyi, 2023.-752 b.
7. Tuxliyev I.S., G‘.X.Qudratov., M.Q.Pardayev. Turizmni rejalashtirish. Darslik. «Iqtisodiyot moliya» nashriyoti.T. 2010.
8. Tursunova D. Hududiy xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining rivojlanish omillari.– “Hududiy iqtisodiyot” ilmiy jurnali, №2, 2023.
9. Usmonov B.B. O‘zbekiston xizmat ko‘rsatish tizimining modernizatsiyasi va davlat xususiy sheriklik mexanizmlari.– “Iqtisodiyot va innovatsiyalar” jurnali, №5, 2024.